

## 4-5 YOSHDAGI BOLALARNING XOTIRA XUSUSIYATLARI

**Usmonova Xusnora Ergashovna**

*Toshkent davlat tibbiyot universiteti 1-son akademik litseyi psixologi*

*E-mail: [xusnorausmonova366@gmail.com](mailto:xusnorausmonova366@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda, ayniqsa 4–5 yosh davrida xotira rivojlanishining psixologik xususiyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotning maqsadi maktabgacha yosh davrida xotira turlarining shakllanishi, ularning kognitiv, nutqiy va hissiy jarayonlar bilan o‘zaro bog‘liqligini ilmiy manbalar asosida yoritishdan iborat. Tadqiqotda nazariy tahlil, taqqoslash va umumlashtirish metodlaridan foydalanilgan. Adabiyotlar tahlili natijalari maktabgacha yoshda obrazli va vizual xotira yetakchi o‘rin tutishini, ixtiyoriy va verbal xotira esa bosqichma-bosqich rivojlanishini ko‘rsatdi. Shuningdek, o‘yin faoliyati, ko‘rgazmalilik, jismoniy faollik hamda emotsional muhit xotira rivojlanishining asosiy omillari sifatida aniqlandi. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta’lim amaliyotida xotirani rivojlantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlarni takomillashtirishda qo‘llanilishi mumkin.

**Kalit so‘zlar:** xotira, maktabgacha yosh, kognitiv rivojlanish, vizual xotira, operativ xotira.

### **Kirish**

Hozirgi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv rivojlanishi masalasi psixologiya va pedagogika fanlarida dolzarb yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, xotira jarayonlarining shakllanishi va rivojlanishi bolaning atrof-muhitni anglashi, bilimlarni o‘zlashtirishi hamda keyingi ta’lim bosqichlariga tayyorgarligida muhim ahamiyat kasb etadi. [6] Maktabgacha yosh davri inson shaxsiyati rivojlanishining poydevori qo‘yiladigan davr bo‘lgani sababli, ushbu bosqichda xotiraning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish ilmiy va amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega.

Psixologik tadqiqotlarda xotira insonning tajribasini saqlash, qayta ishlash va qayta tiklashga xizmat qiluvchi murakkab ruhiy jarayon sifatida qaraladi. Ayniqsa, 4–5 yoshli bolalarda xotira ko‘proq obrazli, ixtiyorsiz va emotsional xarakterga ega bo‘lib, u bolaning tafakkuri, nutqi, diqqati hamda hissiy holati bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanadi. Shu yosh davrida bolalar tomonidan qabul qilinayotgan axborotning ko‘p qismi vizual tasvirlar, harakatlar va qiziqishlar orqali esda qoladi.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalar xotirasiga ta’sir etuvchi omillar juda xilma-xil bo‘lib, ularga o‘yin faoliyati, tasviriy harakatlar, nutqiy faollik, jismoniy mashqlar hamda emotsional muhit kiradi. Shuningdek, ushbu davrda ixtiyoriy va operativ xotiraning shakllanish darajasi bolaning keyingi o‘qish faoliyati samaradorligi bilan bevosita bog‘liq ekanligi ta’kidlanadi.

Shu munosabat bilan mazkur ishda maktabgacha yoshdagi bolalar xotirasining psixologik xususiyatlarini o‘rganish, uning turlari va rivojlanish omillarini tahlil qilish hamda xotirani rivojlantirishda samarali usullarni aniqlash maqsad qilib olindi. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta’lim muassasalari pedagoglari, psixologlar hamda ota-onalar uchun amaliy ahamiyatga ega bo‘lishi bilan birga, bolalarning kognitiv rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

### **Adabiyotlar tahlili**

Hozirgi davrda qo‘llanib kelinayotgan adabiyotlarda xotiraga mana bunday tarzda ta’rif berilib kelinmoqda: “Individning o‘z tajribasida esda olib qolishi, esda saqlashi va keyinchalik uni yana esga tushirishi xotira deb ataladi”. Lekin bu ta’rifda E.G.oziev xotiraga taalluqli bo‘lgan juda ko‘p sifatlar, xossalar va xususiyatlar o‘z aksini topmagan, deb hisoblaydi. Shuning uchun u mukammal, ixcham, pishiq ifodalagan deyishga hech qanday haq-huquqimiz yo‘q deb va xotiraga bunday tarzda ta’rif

beradi: “Xotira atrof -muhitdagi voqelik (narsa)ni bevosita va bilvosita, ixtiyoriy va ixtiyorsiz ravishda, passiv va aktiv (faol) holda reproduktiv va produktiv tarzda, verbal va noverbal shaklda, mantiqiy va mexanik yo‘l bilan aks ettiruvchi esda olib qolish, esda saqlash, qayta esga tushirish, unitish hamda tanish, eslashdan iborat ruhiy jarayon, alohida va umumiy namoyon qiluvchi hodisa, barcha taassurotlarni ijobiy qayta ishlashga yo‘naltirilgan mnemik (yunoncha mnema – xotira ) faoliyatidir”. [6]

Z.S. Nemovning fikricha, xotirani hayot tajribasini olish, saqlash va takrorlash qobiliyati sifatida aniqlash mumkin. Turli xil instinktlar, tug‘ma va orttirilgan xulq-atvor mexanizmlari individual hayot jarayonining singdirilgan, meros qilib olingan yoki orttirilgan tajribasidan boshqa narsa emas. Bunday tajribani doimiy ravishda yangilab turilmasa, uni mos sharoitlarda rivojlantirilmasa, tirik organizmlar hozirgi tez o‘zgaruvchan hayot hodisalariga moslasha olmaydi. U bilan nima sodir bo‘lganini xotirlamasdan, organizm yanada mukammallasha olmaydi, chunki u olgan narsa bilan taqqoslanadigan hech narsa bo‘lmaydi va qaytarib bo‘lmaydigan darajada yo‘qoladi. [4]

Maktabgacha yoshdagi bolalarda (4-5 yosh) bu jarayon o‘ziga xosliklar bilan namoyon bo‘ladi.

G.A. Uruntaeva maktabgacha yoshda xotiraning asosiy turi, esda qoladigan material turiga qarab, obrazli xarakterga egaligi ta’kidlab, bolalar xotirasining asosiy mazmunini predmetlar va ularning xossalari, atrofdagi odamlar va ularning faoliyati, tabiatning predmetlari va hodisalari, makon va vaqt, ertak qahramonlari haqidagi tasavvurlar tashkil etadi deb hisoblaydi. Ushbu o‘ziga xos vizual tasvirlar – maktabgacha yoshdagi bolalar o‘zlarining o‘yinlarida, hikoyalarida, chizmalarida va konstruksiyalarida “qurilish materiali” sifatida qo‘llaydi. [5]

So‘zlarni yodlash uni talaffuz qilish bilan bog‘liq: shuning uchun undagi tovushlar qancha ko‘p bo‘lsa, uni talaffuz qilish uchun ko‘proq vaqt ketadi va shunga mos ravishda xotirada muxrlash kerak bo‘lgan ko‘proq ma’lumot mavjud.

A. N. Veraksa maktabgacha yoshdagi bola tomonidan namoyon etiladigan va “zaif xotira” uchun qabul qilingan eslab qolishning ko‘plab xususiyatlari aslida uning tafakkur xususiyatlari bilan bog‘liq: egotsentrizm bilan qurilgan fikrlarning noaniqligi (masalan, qahramon va uning harakatlari o‘rtasidagi), uning vizual-majoziy tabiati ekanligini o‘z tadqiqodlarida ko‘rsatgan. [2]

S.V.Batueva tadqiqodlari bolalar o‘zlari uchun qiziqarli bo‘lgan ma’lumotlarni kattalarga qaraganda osonroq va tezroq eslab qolishini, lekin ularning ixtiyoriy xotirasi bu davrda zaif shakllanganligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ular har doim ham eslab qolgan narsalarni anglamaydi. Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda vizual xotira nisbatan kuchliroq, eshitish va og‘zaki xotira esa quyi darajada qayd etiladi. Ular vizual tarzda taqdim etilgan muayyan ob‘ektlarni, ranglarni, chexralarni eslab qoladilar. Katta yoshdagi maktabgacha yoshdagi bolalarning bu xususiyati boshqa aqliy jarayonlarning o‘ziga xosligi va birinchi navbatda fikrlashi bilan bog‘liq. [1]

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun xotira rivojlanishini eng samarali usuli tasviriy tarkibga asoslangan. S. Batler tajribasida 3-6 yoshli bolalar o‘t o‘chirish stansiyasiga sayohatda qatnashdilar. Ekskursiya davomida bolalar o‘t o‘chiruvchilarning mashg‘ulotlarini, jihozlarning ta’miranishini va hokazolarni tomosha qilishdi. Bir oy o‘tgach, bolalarning yarmidan ekskursiya haqida gapirib berish, qolgan yarmidan esa bir vaqtning o‘zida uni chizish va sharhlash taklif qilindi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, 3-4 yoshida sayohatni chizgan bolalar bu haqda gapiradigan tengdoshlariga qaraganda ko‘proq eslab qolishgan. 5-6 yoshda bu tendensiya kuchaydi: rasm chizgan maktabgacha yoshdagi bolalar tasvirga murojaat qilmagan tengdoshlariga qaraganda ikki baravar ko‘p voqealarni eslab qolishgan. Biroq, bu xotirani rivojlantirish uchun so‘zlardan foydalanish kerak degani emas. [7]

4-5 yoshli bolalarda fonetik xotiraning o‘ziga xosliklar bilan farqlanishini abadiyotlar taxlili ko‘rsatadi. O‘qish va fonologik xotira o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqladi. O‘qishning fonologik xotiraga ta’siri fonologik tassavvurlarning sifatiga bog‘liq. Rivojlanishda o‘qish, fonetik ko‘nikmalar va qisqa muddatli xotira o‘zaro bog‘liqdir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, qisqa muddatli xotira erta o‘qishni o‘rganishda asosiy rol o‘ynaydi. Verbal va vizual qisqa muddatli xotira umumiy neyron tarmoqlarga ega. Qisqa muddatli xotira so‘z tartibini tushunish va so‘zlarni eslab qolish uchun muhimdir. [8]

L. P. Blything gaplarni tushunish samaradorligini so‘z boyligi emas, balki xotira belgilaydi. 4 yoshgacha bo‘lgan bolalar ko‘p qismli jummalarni bosqichma-bosqich o‘rganadilar deb hisoblaydi.

[6] A.Hupbach 5 yoshli bolalarda xotirani yangilanishi tanish kontekstlarda kamroq ifodalanishini ta'kidlaydi. [11]

J.Formoso xotiraning operativ turi bo'yicha tadqiqodlaridan quyidagi xulosalarga keladi. Operativ xotira va qayta ishlash tezligi kabi kognitiv qobiliyatlar arifmetik malaka bilan bog'liq. Operativ xotira – bu axborotni vaqtincha saqlash va parallel qayta ishlash uchun mas'ul bo'lgan xotira tizimi. 4 yoshda bolalar ko'rgazmali qurollarni afzal ko'radilar. 5 yoshda, strategiyalar o'rtasida hech qanday farq mavjud emas. Qayta ishlash tezligi va qisqa muddatli xotira arifmetik masalalarni yechishda asosiy rol o'ynaydi. [9] Raqamli idrok xotira va diqqat kabi boshqa kognitiv jarayonlar bilan bog'liq bo'lishi mumkinligini F. Soltész ta'kidlaydi. [14] Shu bilan birga L.Serra muntazam jismoniy mashqlar, masalan, gimnastika, vizual-fazoviy operativ xotirani yaxshilashini o'z xulosalarida ko'rsatadi. [13] Operativ xotira esa bolalarning hissiy holatiga ta'sir qiladi. Neyronli tadqiqotlar ishchi xotirasi va hissiy idrok o'rtasidagi bog'liqlikni tasdiqlaydi. Operativ xotirani o'rganish bolalarning hissiy tushunchalarini yaxshilanishiga olib kelishi mumkin. [12] Kompyuterlashtirilgan mashqlar tug'ilishida kam vaznga ega bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarning operativ xotirasiga, vizual va verbal o'qitishiga uzoq muddatli ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday o'qitish maktab ta'limidan olingan saboqlarni saqlab qolish qobiliyatini yaxshilaydi va kognitiv rivojlanishga yordam beradi. [10] Haftalik jismoniy faollik maktabgacha yoshdagi bolalarda operativ xotirani va harakat kompetensiyasini yaxshilaydi. Bu esa o'z navbatida operativ xotiraning yaxshilanishi harakat kompetensiyasining yaxshilanishi bilan bog'liqligini ko'rsatadi. [15]

## **Muhokama**

Tahlil qilingan ilmiy manbalar maktabgacha yoshdagi bolalar xotirasi rivojlanishining nazariy-metodologik asoslari yetarlicha keng yoritilganini ko'rsatadi. Turli mualliflar tomonidan berilgan ta'rif va yondashuvlar xotirani faqat axborotni saqlash jarayoni sifatida emas, balki bolaning umumiy ruhiy va kognitiv rivojlanishini ta'minlovchi muhim psixik funktsiya sifatida talqin qilish imkonini beradi.

E.G'oziev va F.G'ozieva xotirani ko'p qirrali, faol va dinamik jarayon sifatida izohlab, uning ixtiyoriy va ixtiyorsiz, verbal va noverbal, mantiqiy va mexanik shakllarini alohida ta'kidlaydilar. Bu yondashuv xotirani boshqa psixik jarayonlar bilan o'zaro bog'liq holda o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Nemovning fikricha esa xotira individual hayot tajribasini to'plash va saqlash orqali organizmning tashqi muhitga moslashuvini ta'minlaydi, bu esa uning hayotiy ahamiyatini yanada oshiradi.

Maktabgacha yosh davrida, ayniqsa 4–5 yoshda, xotiraning obrazli va vizual shakli ustun ekanligi qator tadqiqotlarda o'z tasdig'ini topgan. G.A. Uruntaeva bolalar xotirasi mazmunini asosan atrof-muhit ob'ektlari, odamlar faoliyati, tabiat hodisalari hamda ertak qahramonlari haqidagi tasavvurlar tashkil etishini ta'kidlaydi. Bu holat bolalar faoliyatida o'yin, rasm chizish va konstruktiv mashg'ulotlarning yetakchi o'rin tutishini izohlaydi.

A.N. Veraksa hamda S.V. Batueva tadqiqotlari bolalarda ixtiyoriy xotiraning zaif rivojlanganligi, biroq qiziqish va emotsional ahamiyatga ega axborotning osonroq eslab qolinishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, vizual xotiraning eshitish va verbal xotiraga nisbatan kuchliroq ekanligi aniqlangan. Bu esa ta'lim jarayonida ko'rgazmalilik prinsipini ustuvor qo'llash zarurligini asoslaydi.

Zamonaviy tadqiqotlarda fonologik, qisqa muddatli va operativ xotiraning o'qish, nutqni tushunish va arifmetik qobiliyatlar bilan uzviy bog'liqligi ilmiy jihatdan isbotlangan. Jismoniy faollik, maxsus kognitiv mashqlar hamda kompyuterlashtirilgan dasturlar orqali operativ xotirani rivojlantirish imkoniyati amaliyot uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

## **Xulosa**

Adabiyotlar tahlili natijalari shuni ko'rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalarda xotira rivojlanishi bolaning umumiy kognitiv, nutqiy va hissiy rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan murakkab jarayondir. 4–5 yosh davrida xotiraning obrazli, vizual va ixtiyorsiz shakllari ustun bo'lib, ixtiyoriy va verbal xotira bosqichma-bosqich shakllanib boradi.

Xotira rivojlanishining samaradorligi bolaning faol ishtirokini ta'minlovchi o'yin, ko'rgazmali faoliyat, rasm chizish, harakatli mashqlar hamda emotsional jihatdan boy muhit yaratishga bog'liq ekanligi aniqlandi. Shuningdek, fonologik va operativ xotirani rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlar kelgusida o'qish, yozish va hisoblash ko'nikmalarini muvaffaqiyatli shakllantirish uchun muhim shart hisoblanadi.

Shu munosabat bilan, maktabgacha ta'lim tizimida xotirani rivojlantirishga qaratilgan tizimli, ilmiy asoslangan va yosh xususiyatlariga mos pedagogik yondashuvlarni joriy etish bolalarning intellektual salohiyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Адабиётлар рўйхати**

1. Батуева С. В. Развитие памяти у старших дошкольников как одно из условий успешного обучения // Вестник Совета молодых учёных и специалистов Челябинской области. – 2017. – Т. 2. – № 1 (16). – С. 19–21.
2. Веракса А. Н. Развитие памяти дошкольников // Современное дошкольное образование. – 2008. – № 3. – С. 46–54.
3. G'oziev E., G'ozieva F. Umumiy psixologiya [Matn]: psixologiya mutaxassisligi uchun darslik. – Toshkent: Noshir, 2023. – 656 b.
4. Немов Р. С. Психология: в 3 кн. Кн. 1. Общие основы психологии: учебник для студентов высших педагогических учебных заведений. – 5-е изд. – М.: Гуманитарный издательский центр ВЛАДОС, 2006. – 687 с.
5. Урунтаева Г. А. Детская психология: учебник для студентов учреждений высшего профессионального образования. – М.: Издательский центр «Академия», 2013. – 336 с.
6. Blything L. P., Davies R., Cain K. Young children's comprehension of temporal relations in complex sentences: The influence of memory on performance // Child Development. – 2015. – Vol. 86. – № 6. – P. 1922–1934.
7. Butler S., Gross J., Hayne H. The effect of drawing on memory performance in young children // Developmental Psychology. – 1995. – № 4.
8. Cunningham A. J., Burgess A. P., Witton C., Talcott J. B., Shapiro L. R. Dynamic relationships between phonological memory and reading: A five-year longitudinal study from age 4 to 9 // Developmental Science. – 2021. – Vol. 24. – № 1.
9. Formoso J., Jacobovich S., Injoque-Ricle I., Barreyro J. P. Resolution of arithmetic problems, processing speed and working memory in children // Trends in Psychology. – 2018. – Vol. 26. – P. 1249–1266.
10. Grunewaldt K. H., Skranes J., Brubakk A. M., Låhaugen G. C. Computerized working memory training has positive long-term effects in very low birthweight preschool children // Developmental Medicine & Child Neurology. – 2016. – Vol. 58. – № 2. – P. 195–201.
11. Hupbach A., Gomez R., Nadel L. Episodic memory updating: The role of context familiarity // Psychonomic Bulletin & Review. – 2011. – Vol. 18. – P. 787–797.
12. Li Q., Liu P., Yan N., Feng T. Executive function training improves emotional competence for preschool children: The roles of inhibitory control and working memory // Frontiers in Psychology. – 2020. – Vol. 11.
13. Serra L., Raimondi S., Di Domenico C., Maffei S., Lardone A., Liparoti M. The beneficial effects of physical exercise on visuospatial working memory in preadolescent children // AIMS Neuroscience. – 2021. – Vol. 8. – P. 496–509.
14. Soltész F., Szűcs D., Szűcs L. Relationships between magnitude representation, counting and memory in 4- to 7-year-old children: A developmental study // Behavioral and Brain Functions. – 2010. – Vol. 6. – P. 1–14.
15. Wang D. L., Hou J. M., Xia T., Qiu S., Wang X. Y., Zhou S. B. Physical activity intervention promotes working memory and motor competence in preschool children // Frontiers in Public Health. – 2022. – Vol. 10.
16. <https://dss.natlib.uz/>
17. <https://diss.natlib.uz/>